



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

338-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Majburiy raqamli markirovkalash jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-maydagi PQ–203-son qarori ijrosi haqida”gi 302-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Majburiy raqamli markirovkalash jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-maydagi PQ–203-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 302-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 13 iyuldagi 302-6-0-Q/24-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi PQ–203-son qarori bilan:
quyidagilar:

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, 2022-yil 1-yanvardan boshlab raqamli markirovkalangan mahsulotlar chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun onlayn nazorat-kassa mashinasi va virtual kassaga ulangan, shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to‘g‘ri o‘qishni va aniqlashni ta‘minlovchi 2D-skannerlar, ma‘lumotlarni yig‘uvchi terminallar yoki boshqa turdagi maxsus qurilmalardan (keyingi o‘rinlarda — markirovkani o‘qish qurilmalari) majburiy foydalanish talabi belgilanganligi;

majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlarning chakana yoki ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalariga “Asl belgisi” mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga ulanish majburiyati yuklanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha, 2024-yil 1-sentabrdan boshlab:

a) tadbirkorlik subyektlari tomonidan markirovkalanadigan mahsulotlarni markirovkani o‘qish qurilmalaridan foydalanmagan holda sotish holatlari soliq organlari bazasi ma‘lumotlari asosida aniqlanganda, ushbu tadbirkorlik subyektlari shaxsiy kabineti orqali holat yuzasidan ogohlantirilishi hamda quyidagi choralarni ko‘rish amaliyoti joriy etilishi:

ikki marta ogohlantirishdan so‘ng qonun buzilishi bir oy ichida qayta takrorlangan taqdirda, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqbuzarlik sodir etilgan chorakdagi faoliyat yuzasidan soliq tekshiruvni tayinlanishi;

qonun buzilishi soliq tekshiruvni yakunlangandan bir oydan keyin qayta takrorlanganda tadbirkorlik subyektlarini xabardor qilmasdan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni tekshirish kunida xabardor qilgan holda soliq tekshiruvni tayinlanishi;

b) soliq organlariga:

majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlar bo'yicha aniqlangan qalbaki va kontrafakt holatlar hamda markirovkalash qoidalari buzilganligi yuzasidan tekshiruvlarni tadbirkorlik subyektlarini xabardor qilmasdan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni tekshirish kunida xabardor qilgan holda amalga oshirish;

har chorakda majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlarning chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq tekshiruvlarini amalga oshirish vakolati berilganligi;

Soliq qo'mitasi har chorakda majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlarning chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari orasidan har bir hudud kesimida inson omilisiz avtomatik tarzda kamida 10 foizini tanlab olgan holda, ularda nazorat tadbirlarini o'tkazishi hamda qonun buzilishi holatlari aniqlangan subyektlar faoliyatini keyingi uch chorak davomida nazorat qilib borishi;

amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun markirovkani o'qish qurilmalarini sotib olish bilan bog'liq xarajatlar summasiga, biroq bitta qurilma uchun bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i yoki aylanmadan olinadigan soliq yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalarini kamaytirish huquqi berilganligi;

majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlarni markirovkalash uchun zarur bo'lgan va import qilinadigan uskunalar (TIF TN kodlari: 7616 999 009, 9029 900 009, 8544 499 500 va 8528 529 000) 2024-yil 1-iyundan

2027-yil 1-iyunga qadar bojxona bojidan ozod qilinganligi; 2024-yil 1-sentabrdan:

pivo mahsulotlarining chakana savdosi faoliyati vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritilishi;

tamaki va pivo mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdoridagi har oylik yig'im joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i J.Anvarov belgilansin.

4. Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev